

«Talimarjon IES» AJga joriy yarim yil davomida kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha

MA'LUMOTNOMA

“Talimarjon IES” aksiyadorlik jamiyati rahbariyatiga 2023 yil 06 oy mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan qabul qilingan jami 58 ta murojaatlardagi masalalar to'liq o'rganib chiqildi.

“Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” AJga kelib tushadigan murojaatlarning asosiy qismi ishga kirish masalasida qilingan bo'lib, joriy yarim yilda mazkur masala yuzasidan 49 ta murojaat o'rganib chiqildi, bunda har bir fuqaroga “Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” AJda “ish haqi fondi va ish o'rinalarini optimallashtirish” ishlari olib borilayotganligi hamda “Talimarjon issiklik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyati shtatlar jadvalida bo'sh ish o'rinalari yo'qligi sababli xozirgi kunda ishga qabul qilish imkoniy yo'qligi to'g'risida mas'ul xodimlar tomonidan tushuntirish ishlari olib borildi va yozma ravishda javob xatlar yuborildi.

Shuningdek, ro'yxatga olingan 9 ta murojaat ichimlik suv bilan ta'minlash, uy – joy masalasi, homiylik yordami va moddiy yordam singari bir qancha umumiy masalalar yuzasidan kelib tushgan bo'lib, ushbu murojaatlar ham rahbariyat tomonidan o'rganib chiqildi.

Uy-joy masalasida qilingan murojaatlarga, “Talimarjon IES” AJ hisobidagi barcha uy-joy fondi to'liq mahalliy hokimiyatlar balansiga o'tkazib berilganligi sababli uy-joy bilan ta'minlash imkoniy yo'qligi tushuntirildi.

“Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” AJ tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarni o'z vaqtida o'rganish va maqbul yechimlarini topish, korxona vakolatiga taalluqli bo'limgan masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish va qonun doirasida tegishli choralarни ko'rish, murojaat qilayotgan har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilish muhim vazifa sanaladi.

O'rganish va tahlil o'tkazish davomida “Talimarjon IES” AJga kelib tushgan murojaatlarning barcha yig'ma jildlaridan foydalanildi va mazkur ma'lumotnomasi O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonunining 35-moddasini 4-bandiga asosan veb-saytga joylashtirilishi uchun taqdim qilinmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslar
murojaati bo'yicha inspektor:

F.Toyirova